

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI


2025-yil 1-iyul holatiga

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

1. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 37,4 mingtani tashkil etadi, shundan 30,8 mingtasi yoki 82,5 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,3 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 97,5 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



| Yillar | Korxonalar va tashkilotlar | shundan: | |
|--------|----------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | | Tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | | Kichik biznes subyektlari |
| 2025 | 37 368 | 31 039 | 30 817 |
| 2024 | 38 030 | 31 824 | 31 605 |
| 2023 | 42 057 | 36 074 | 35 848 |
| 2022 | 49 303 | 43 184 | 42 947 |
| 2021 | 44 948 | 38 923 | 38 734 |



Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Farg'ona shahrida – 17,5 foiz, Qo'qon shahrida – 10,1 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,4 foiz va Oltiariq tumanida – 5,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Marg'ilon shahrida – 87,2 foiz va 86,7 foiz, Qo'qon shahrida – 86,3 va 85,4 foiz, Quvasoy shahrida – 86,1 foiz va 85,4 foiz hamda Oltiariq tumanida – 86,0 foiz va 85,8 foiz to'g'ri keldi.

| | Korxonalar va tashkilotlar | shundan: | |
|--------------------------|----------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | | Tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | | Kichik biznes subyektlari |
| Farg'ona viloyati | 37 368 | 31 039 | 30 817 |
| Farg'ona shahar | 6 557 | 5 478 | 5 426 |
| Qo'qon shahar | 3 771 | 3 255 | 3 221 |
| Marg'ilon shahar | 2 781 | 2 425 | 2 410 |
| Oltiariq tumani | 2 131 | 1 833 | 1 829 |
| Uchko'prik tumani | 1 856 | 1 583 | 1 551 |
| Quva tumani | 1 719 | 1 372 | 1 364 |
| Farg'ona tumani | 1 715 | 1 370 | 1 358 |
| O'zbekiston tumani | 1 654 | 1 336 | 1 330 |
| Rishton tumani | 1 616 | 1 276 | 1 273 |
| Dang'ara tumani | 1 549 | 1 289 | 1 278 |
| Toshloq tumani | 1 519 | 1 287 | 1 283 |
| Buvayda tumani | 1 513 | 1 245 | 1 242 |
| Bag'dod tumani | 1 452 | 1 132 | 1 126 |
| Quvasoy shahar | 1 406 | 1 211 | 1 201 |
| Qo'shtepa tumani | 1 345 | 1 086 | 1 076 |
| Beshariq tumani | 1 336 | 1 029 | 1 027 |
| Yozyovon tumani | 1 329 | 1 107 | 1 103 |
| So'x tumani | 1 100 | 924 | 920 |
| Furqat tumani | 1 019 | 801 | 799 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-iyul holatiga 33,9 foizni (40,8 foiz va 41,0 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,5% (19,8% va 19,7%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 5,8% (6,9% va 6,9%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50,0% dan ortig'ini tashkil qiladi.

| | Korxonalar va tashkilotlar | shundan: | |
|--|----------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | | Tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | | Kichik biznes subyektlari |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 1 502 | 1 463 | 1 453 |
| Sanoat | 6 155 | 6 145 | 6 076 |
| Qurilish | 2 174 | 2 152 | 2 135 |
| Savdo | 12 675 | 12 674 | 12 631 |
| Tashish va saqlash | 1 405 | 1 398 | 1 387 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 058 | 2 051 | 2 048 |
| Axborot va aloqa | 620 | 616 | 615 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1 491 | 1 093 | 1 087 |
| Boshqa turlar | 9 288 | 3 447 | 3 385 |

2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025- yil 1-iyul holatiga ko'ra, 31,0 mingta faol tijorat korxonalaridan 21,5 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

| | Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda) | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda) |
|--------------------------------|--|--|
| Mas'uliyati cheklangan jamiyat | 21 490 | 69,2 |
| Xususiy korxonalar | 5 213 | 16,8 |
| Oilaviy korxonalar | 3 905 | 12,6 |
| Aksiyadorlik jamiyati | 42 | 0,1 |
| Boshqalar | 389 | 1,3 |

3. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 547 ta korxonalaridan 214 tasi qo'shma korxonalar va 333 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 77 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 106 tadan 125 taga, (o'sish 19 taga), sanoat sohasida 234 tadan 256 taga (o'sish 22 taga) va qurilish sohasida 33 tadan 45 taga (o'sish 12 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

| | Jami: | shundan: | |
|--|------------|--------------------|--------------------|
| | | Qo'shma korxonalar | Xorijiy korxonalar |
| Jami: | 547 | 214 | 333 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 21 | 13 | 8 |
| Sanoat | 256 | 124 | 132 |
| Qurilish | 45 | 19 | 26 |
| Savdo | 125 | 30 | 95 |
| Tashish va saqlash | 16 | 6 | 10 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 16 | 6 | 10 |
| Axborot va aloqa | 23 | 1 | 22 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 11 | 2 | 9 |
| Boshqa turlar | 34 | 13 | 21 |



Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 183 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 33,5 foizini tashkil etdi. Farg'ona viloyatining iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (18,5%), Turkiya (12,4%), Qirg'iz Respublikasi (5,7%) va Janubiy Koreya (5,5%) ham alohida o'rin egallaydi.

| | Jami: | shundan: | |
|----------------------|------------|--------------------|--------------------|
| | | Qo'shma korxonalar | Xorijiy korxonalar |
| Jami: | 547 | 214 | 333 |
| Xitoy | 183 | 69 | 114 |
| Rossiya | 101 | 48 | 53 |
| Turkiya | 68 | 20 | 48 |
| Qirg'iz Respublikasi | 31 | 14 | 17 |
| Janubiy Koreya | 30 | 14 | 16 |
| Tojikiston | 26 | 11 | 15 |
| Ozarbayjon | 13 | 2 | 11 |
| Yaponiya | 11 | 3 | 8 |
| Qozog'iston | 11 | 5 | 6 |
| Germaniya | 8 | 3 | 5 |
| Belorusiya | 8 | 3 | 5 |
| Afg'oniston | 6 | 1 | 5 |
| Hindiston | 5 | 2 | 3 |
| Buyuk Britaniya | 4 | 4 | |
| Turkmaniston | 3 | 1 | 2 |
| BAA | 2 | 1 | 1 |
| AQSH | 2 | 1 | 1 |
| Pokiston | 3 | | 3 |
| Boshqalar | 32 | 12 | 20 |



4. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,

Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy

Pochta: farstat@farstat.uz

Tel: 73 249-00-08 (4060)
